Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 336

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH

Jamshid Nu’monovich Yo‘ldashev*

Farg‘ona davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

✉ j.yuldashev.2002@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishida O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholash masalalari “Hamkorbank” ATB va “Biznesni rivojlantirish banki” misolida tahlil qilingan. Banklarning 2017–2024-yillardagi kapitali, sof foydasi, sof daromadi, aktivlari va majburiyatlari dinamikasi o‘rganilgan. Shuningdek, ROE, ROA, COR, sof foyda marjasi va qarzning kapitalga nisbati ko‘rsatkichlari asosida moliyaviy barqarorlik hamda daromadlilik darajasi baholangan.

Kalit so‘zlar

tijorat banklari, moliyaviy samaradorlik, islom moliyasi, bank kapitali, sof foyda, rentabellik, ROA, ROE, kredit riski, moliyaviy barqarorlik.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimi milliy iqtisodiyotning asosiy tayanchi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Tijorat banklari aholining bo'sh mablag‘larini jalb qilish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini kreditlash va to‘lov-hisob-kitob xizmatlarini ko‘rsatish orqali iqtisodiy o‘sishga bevosita hissa qo‘shadi [1]. Tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini muntazam baholab borish davlat va xususiy sektor uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholash ularning barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, islom moliyasini rivojlantirish kontekstida tijorat banklarining hozirgi moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish zaruriyati yanada ortib bormoqda [2]. Mavjud moliyaviy ko‘rsatkichlar banklarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish uchun zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

R.C.Merton, F.S.Mishkin hamda A.Saunders va M.M.Cornett ilmiy ishlarida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, daromadliligi va risklarni boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Merton bank faoliyatida moliyaviy vositachilik va risklarni boshqarishning nazariy asoslarini, Mishkin bank tizimining iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini, Saunders va Cornett esa banklarning aktivlari, majburiyatlari, kapitali hamda moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini boshqarish masalalarini yoritgan. Ushbu ilmiy qarashlar tijorat banklari faoliyatini ROA, ROE va kredit riski ko‘rsatkichlari asosida baholashga nazariy asos bo‘ladi.

O.I.Lavrushin, G.S.Panova hamda E.F.Jukov ilmiy izlanishlarida tijorat banklarining moliyaviy holati, kapital yetarliligi, aktivlar sifati, likvidlik va rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish masalalarini o‘rgangan. Xususan, Lavrushin bank faoliyatining iqtisodiy asoslari va moliyaviy barqarorligini, Panova banklarning moliyaviy natijalarini tahlil qilish va boshqarish mexanizmlarini, Jukov esa bank operatsiyalari, daromadlilik va moliyaviy risklarni baholash masalalarini tadqiq etgan. Ularning ilmiy yondashuvlari banklarning moliyaviy

samaradorligini kompleks baholashda kapital, aktivlar va majburiyatlar nisbatini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Mahalliy olimlar. I. adikov, S.Xannayev hamda Sh.Abdullayeva ilmiy izlanishlarida O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, aktivlardan foydalanish samaradorligi va bank faoliyatini boshqarish masalalari yoritilgan. Xususan, Sadikov tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashning nazariy asoslarini, Xannayev banklar samaradorligini ROA ko‘rsatkichi orqali baholashni, Abdullayeva esa bank faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy asoslarini tadqiq etgan. Ushbu izlanishlar tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini ROA, ROE, COR, sof foyda marjasi va qarzning kapitalga nisbati asosida baholash uchun ilmiy asos yaratadi.

Natija va muhokam. Tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholashda eng ko‘p qo'llaniladigan usullardan biri bu asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilishdir. Ushbu yondashuv bank faoliyatining daromadlilik, barqarorlik va riskka chidamlilik jihatlarini bir vaqtning o‘zida kompleks baholash imkonini beradi.

“Hamkorbank” ATB O‘zbekistondagi yetakchi xususiy tijorat banklaridan biri bo‘lib, islom moliyasi instrumentlarini amaliyotga joriy etgan ilk mahalliy banklar qatoriga kiradi. Bankning moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish O‘zbekiston tijorat banklari uchun islom moliyasini rivojlantirishning amaliy ahamiyatini ochib berishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [3].

1-jadval

“Hamkorbank” ATBning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2020	2021	2022	2023	2024
O‘z kapitali	573,04	763,32	1,48	1,93	2,57	3,76	5,16
Sof foyda	138,55	190,21	338,75	450,88	735,40	1200	1430
Sof daromad	426,15	583,17	855,51	1,15	1,74	2,59	3,17
Jami aktivlar	5570	6870	10460	12420	16720	20980	28710
Jami majburiyatlar	5000	6110	8890	10490	14150	17220	23550

Tahlil davri mobaynida bankning o‘z kapitali 573,04 mlrd so'mdan 5 160 mlrd so‘mga – ya’ni 9 barobarga oshgan bo‘lib, bu bankning moliyaviy mustahkamligi izchil kuchayib borayotganligini tasdiqlaydi. Sof foyda 138,55 mlrd so‘mdan 1 430 mlrd so‘mga – 10,3 barobar o‘sgan, biroq sof foyda marjasining 0,12–0,18 oralig‘ida qolishi daromadlilik salohiyati to‘liq ishga solinmayotganligidan dalolat beradi. Sof daromad esa 426,15 mlrd so‘mdan 3 170 mlrd so‘mga ko‘tarilib, 644% o‘sish sur’tini qayd etgan. Jami aktivlar 5 570 mlrd so‘mdan 28 710 mlrd so‘mga — 5,2 barobar oshgan bo‘lib, ROA ko‘rsatkichining 2,4% dan 4,97% ga ko‘tarilishi aktivlardan foydalanish samaradorligi yaxshilanayotganligini ko‘rsatadi [4].

. Fikrimizcha, sof foyda marjasining nisbatan past darajada qolishi va an’anaviy moliya instrumentlariga haddan ziyod tayanish bankning uzoq muddatli raqobatbardoshligiga ma‘lum darajada xavf tug‘dirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, islom moliyasi mexanizmlarini joriy etish bank daromadliligini oshirish va mijozlar bazasini kengaytirishning strategik yo ‘nalishi sifatida ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Quyidagi jadvalda “Hamkorbank” ATBning samaradorlik koeffitsientlari dinamikasi keltirilgan.

2-jadval

“Hamkorbank” ATB faoliyatining samaradorlik koeffitsientlari dinamikasi (foiz)

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2020	2021	2022	2023	2024
Kapitalning rentabelligi ROE	24,18	24,92	26,51	23,39	28,61	31,94	27,64
Aktivlarning rentabelligi ROA	2,4	2,77	3,41	3,63	4,40	5,72	4,97
Riskning qiymati/ Kredit riski xarajati COR	1,81	0,00	3,52	1,24	1,94	1,83	2,12
Sof foyda marjasi	0,14	0,15	0,15	0,14	0,15	0,18	0,12
Qarzning kapitalga nisbati	8,72	8,00	6,08	5,44	5,51	4,58	4,56

“Hamkorbank” ATBning samaradorlik koeffitsientlari tahlili barqaror ijobiy tendensiyani ko‘rsatadi. ROE 24,18% dan 31,94% ga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, 2024 yilda 27,64% ga tushishi kapital o‘sish sur’atining sof foydadan ustun kelayotganligini bildiradi. ROA 2,4% dan 4,97% ga izchil o‘sib, aktivlar samaradorligi yaxshilanib borayotganligini tasdiqlaydi. COR 2020 yilda COVID-19 ta'sirida 3,52% ga ko‘tarilgan, keyingi yillarda esa 1,83–2,12% oralig‘ida barqarorlashgan. Sof foyda marjasining 0,12–0,18 oralig‘ida qolib ketishi an’anaviy instrumentlar doirasida daromadlilikni oshirishning cheklangan ekanligini ko‘rsatadi. D/E nisbatining 8,72 dan 4,56 ga kamayishi esa kapital bazasining mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari ichida islom moliyasi elementlarini qo‘llagan banklar qatorida ATB “Biznesni rivojlantirish banki” alohida o‘rin tutadi. Quyidagi jadvalda bankning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi keltirilgan.

3-jadval

ATB “Biznesni rivojlantirish banki”ning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2020	2021	2022	2023	2024
Jami kapitali	1170	1240	2410	2700	2940	3180	4300
Sof foyda	30,06	86,28	223,66	319,42	437,42	236,04	-2231
Sof daromad	242,44	379,48	602,25	868,10	1221,27	1065,14	0
Jami aktivlar	6647,07	9342,3	15923,5	20708,1	24822,3	27062,9	32130
Jami majburiyatlar	5 478,7	8107,1	13509,5	18011,7	21878,5	23882,7	27837,9

ATB “Biznesni rivojlantirish banki”ning moliyaviy ko‘rsatkichlari 2017–2022 yillarda barqaror o‘sishni qayd etgan bo‘lsa-da, 2024 yilda keskin inqirozga yuz tutgan. Jami kapital 3,7 barobarga, jami aktivlar esa 4,8 barobarga oshgan, biroq sof foyda 2024 yilda -2 231 mlrd so‘m zararga, sof daromad esa nolga tushishi bankning asosiy faoliyatidan daromad keltirish qobiliyatini yo‘qotganligini ko‘rsatadi. Jami majburiyatlarning 27 837,9 mlrd so‘mga yetishi bank resurs bazasining asosan qarz mablag‘lari hisobiga shakllanayotganligini tasdiqlaydi [5].

Xulosa. O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholash natijalari bank faoliyatida kapital, aktivlar, daromadlilik va risk ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni kompleks tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. “Hamkorbank” ATB misolida 2017–2024-yillarda o‘z kapitali 573,04 mlrd so‘mdan 5 160 mlrd so‘mga, sof foyda esa 138,55 mlrd so‘mdan 1 430 mlrd so‘mga oshgan. ROA ko‘rsatkichining 2,4 foizdan 4,97 foizga ko‘tarilishi bank aktivlaridan foydalanish samaradorligi yaxshilanganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Islom moliyasi instrumentlarini rivojlantirish. O‘zbekiston tijorat banklarida murabaha, mudaraba va mushoraka kabi islomiy moliyalashtirish instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish taklif etiladi.

2. Banklarning integral moliyaviy monitoring tizimini takomillashtirish. Tijorat banklarida ROA, ROE, COR, sof foyda marjasi va D/E ko‘rsatkichlarini yagona monitoring tizimida birlashtirish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev J. N. (2026). Tijorat banklarida islomiy moliyalashtirish xizmatlarini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirish. Zamonaviy fan: innovatsion yondashuvlar va yosh tadqiqotchilarning dolzarb izlanishlari, 210–214. https://doi.org/10.5281/zenodo.21903893

2. Yo‘ldoshev J. (2026). Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida islom moliyasini rivojlantirish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 4(5). https://doi.org/10.5281/zenodo.20379467

3. Merton, R. C. (1995). A functional perspective of financial intermediation. Financial Management, 24(2), 23–41.

4. Mishkin, F. S. (2019). The economics of money, banking, and financial markets (12th ed.). Pearson.

5. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2019). Financial institutions management: A risk management approach (10th ed.). McGraw-Hill Education.

6. Лаврушин, О. И. (Ред.). (2016). Банковское дело (12-е изд.). КНОРУС.

7. Панова, Г. С. (1996). Анализ финансового состояния коммерческого банка. Финансы и статистика.

8. Жуков, Е. Ф. (Ред.). (2015). Банки и небанковские кредитные организации и их операции. Вузовский учебник.

9. Sadikov I. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashning nazariy asoslari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(4).

10. Xannayev S. (2024). O‘zbekiston tijorat banklari samaradorligini ROA ko‘rsatkichi orqali baholash. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(12), 218–226. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss12-pp218-226

11. Abdullayeva, Sh. (2017). Bank ishi. Iqtisod-Moliya.
12. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sahifasi.